

TURLI TILLARDAGI ROD KATEGORIYASI

Isayeva Nilufar

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqolada turli tillardagi rod kategoriyasi bo'yicha xorijiy tillarda: jumladan, o'zbek, rus, ingliz, nemis, fransuz va rus tillaridagi rod kategoriyasi mavzusida tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlar ochib berildi.

Kalit so'zlari: Kategoriya, rod kategoriyasi, xorijiy tillar, o'zbek tili, nemis tili, fransuz tili, rus tili, ingliz tili.

Grammatik ma'no va grammatik shaklning birikuvidan vujudga kelgan umumiyl tushunchalarni ifodalovchi tildagi xususiyatlar grammatik kategoriya deb yuritiladi.

Kategoriya tushunchasi (grekcha kategoria) narsalarga tegishli xususiyatlar ma'nosini ifodalaydi. Grammatik kategoriya bir yo'la grammatik ma'no va grammatik shaklni qamrab oluvchi tushuncha bo'lib, turli tillarda soni va xususiyatlari bilan farq qiladi. Tadqiqotlarda o'zbek tilida grammatik jinsning yo`qligi va turkiy tillarda faqat biologik jinsning lisoniy ifodasi mavjudligi haqida mulohazalar bildirilgan.

Ammo jins tushunchasi ifodasi o'zbek tilida qay tariqa amalga oshishi, jinsnifodalashda qanday lisoniy vositalar faol ishtirok etishi, bundan oraliq hodisalar mavjudligi haqidagi savollar shu paytgacha yirik tadqiqot doirasida o'rganilgan emas va bu boradagi ayrim fikrlarni grammatika darsliklarida, ayrim maqolalarda ko'rishimiz mumkin.

Masalan, XX asrning 70- yillarigacha rus tili ta'sirida yaratilgan o'zbek tili grammatikalarida otlarda grammatik jins kategoriyasiga alohida o'rinn berilgan va o'zbek tilida tirik mavjudotlar jinsini ifodalashda 3 ta: leksik, morfologik va sintatik usullar mavjudligi ta'kidlangan. A.M.Kononov ham o'zining "O'zbek tili

grammatikasi”da shunga yaqin fikrni bildirgan. Ammo keying davrlarda yaratilgan darsliklarda, grammatikalarda jins masalasiga umuman e'tibor qilinmagan [Musayeva F.T., 2019:12].

Otlarda jinsnning ifodalanishi masalasi o'zbek tili darsliklaridan mutlaqo chiqarib tashlangan bo'lsa-da, o'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi masalasi ayrim tadqiqotchilar ishlarida onda-sonda yoritib kelingan. Masalan, 1975 yilda L. Reshetova va Q. Umurovlarning “Rod va jins kategoriyasining leksik-grammatik xususiyatlari “nomli maqolasida chop etiladi.

Mazkur maqolada mualliflar grammatik rod qanday kelib chiqqan, nega ba'zi tillarda u barqaror emas, turkiy tillarda grammatik jins mavjudmi degan savollarga javob berishga urinib ko'rishadi. M.Rasulova o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida tabiiy jinsnning lisoniy ifodasi borasida izlanish olib borgan va jins tushunchasining ifodalanishini qiyosiy aspektda o'rgangan. [Rasulova M.,1997:66].

Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olgan holda “pol” ma'nosida “bilogik jins”, “rod” ma'nosida “grammatik jins” atamalarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. XIX asr o'zbek tilida qisman bo'lsa-da grammatik jins kategoriysi mavjud bo'lgan: 1. Muzakkar jins: mazkur elchi; 2. Muannas jins: mazkura qizlar. Hozirgi zamон o'zbek tilida ***shoir-shoira, muallim-muallima*** kabi ayrim jinsn ni ifadolovchi holatlar uchrab, ular faqat shaxs otlarigagina qo'shilb, kishilarning biologic jinsi farqlanadi.

O'zbek va rus tillaridagi so'z turkimlarining asosiy farqlaridan biri shundan iboratki: rus tilidagi otlarga xos rod kategoriysi o'zbek tilida, o'zbek tilida mavjud bo'lgan egalik kategoriyasiga rus tilidagi otlar ega emas, shuningdek ruscha otlarga mansub bo'lgan rod kategoriysi o'zbek tilida yo'q. Rus tilida egalik, ya'ni tegishlilik, qarashlilik ma'nolarini hosil qilish uchun otlar egalik olmoshlari bilan birga qo'llanadi: ***мой стул, моя книга, моё пальто.*** Rod kategoriysi esa rus tilida birlikdagi otlarning eng muhim morfologik belgisi hisoblanadi. Bu belgi hatto bosh kelishikdagi so'zlarda ham aks etadi va uni hosil qiluvchi yagona grammatik ko'rsatkich bu tugalmadir (qo`shimchalar): Bosh kelishikda, birlikda ***-a, -я*** tugalmalariga ega bo'lgan otlar jenskiy rodga kiradi (***мама, сумка, земля,***

чапля); Bosh kelishikda, birlikda undosh bilan tugagan, ya'ni nol tugalmali so'zlar mujskoy rodga kiradi (*стол, диван, герой, отец, дед, брат, друг*); Bosh kelishikda, birlikda oxiri **-o** yoki **-e** (*ё*) bilan tugagan otlar (*слово, окно, море, платье, ружьё*) sredniy rodga kiradi.

Ammo bu belgilarni qat'iy deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki ruscha so'zlarni rodlar bo'yicha guruhashda ma'lum istisnolar ham yo'q emas. Masalan, oxiri yumshoq undosh bilan tugagan so'zlarning ba'zilari mujskoy rodga (*портфель, конь, дождь, пень, день*), ayrimlari esa jenskiy rodga (*голубь, ночь, сталь, лошадь*) kiritiladi. Oxiri **-мя** bilan tugaydigan o'nta so'z (*бремя, время, вымя, знамя, имя, пламя, племя, семя, стремя, темя*) sredniy rodga kiradi. *Пана, дедушка, дядя* kabi so'zlar **-а, -я** tugalmalariga ega bo'lsada, ular erkak jinsidagi shaxsni ifodalagani uchun mujskoy rodga kiritiladi. Chet tilidan o'zlashgan **пальто, кино** so'zlari tugalmasiga qarab sredniy rodga kiritilgan bo'lsada, **кофе** so'zi mujskoy rod hisoblanadi. Rus tiliga xos bo'lмаган oxiri **-y** bilan tugallanadigan so'zlardan *kenguru* so'zi mujskoy rodga, *ragu* esa sredniy rodga kiritiladi. Shuningdek, *жюри, такси* so'zlari sredniy rodga mansub. Ammo bunday o'zlashmalarning birortasi ham kelishiklar bo'yicha turlanmaydi, ya'ni o'zgarmaydi. O'zbek tilida esa har qanday o'zlashma so'z ham o'zbek tili qonuniyatlariga asosan istalgan kelishik qo'shimchasini olib o'zgarish xususiyatiga ega.

Zamonaviy ingliz tilida grammatik rod kategoriyasi mavjud emas. Shuningdek, yangi ingliz tili davri qadimgi ingliz tili davridan keskin farq qiladi. Chunki qadimgi ingliz tili davrida mavjud bo'lgan ba'zi grammatik tushunchalar hozirgi ingliz tilida umuman uchramaydi.

Masalan: qadimgi ingliz tilida ot kategoriyasi quyidagi grammatik kategoriyalarga bo'lingan: a) kelishik kategoriyasi—qadimgi ingliz tilining ot tuzulishida to'rtta grammatik kelishik kategoriyasi: bosh kelishik, qaratqich kelishik, jo'nalish va tushum kelishiklari bo'lgan; b) son kategoriyasi, qadimgi ingliz tili son kategoriyasida birlik va ko'plik shakllari mavjud bo'lgan; c) otning grammatik rod kategoriyasi.

Qadimgi ingliz tili uchta rodga bo'lingan: mujskoy, jenskiy, sredniy.

Qadimgi ingliz tilida rod kategoriyasi leksik-grammatik tuzilishga ega bo'lган.

Har bir ot o'z shakli, mazmuni jihatdan biror bir rodga tegishli bo'lган. Otning grammatik rodi ko'п holatlarda uning leksik ma'nosini bilan aniqlangan. Masalan: **man-erkak, feader-ota** mujskoy rodga kirsa, **modor-ona, dohtor-qiz** otlari jenskiy rodga tegishli bo'lган. Ammo ko'п holatlarda otning rod kategoriyasi leksik ma'no bilan bo'g'liq bo'lmagan. Masalan, rodga **fot-oyoq, ende-yakun, jenskiy rodga; giefu-qobiliyat, tunge-til; sredniy rodga esa scip-kema, eadge-ko'z** otlari kabilar kirgan. Qadimgi tili davrida avvalgi negiz yasovchi affiksiga bog'liq holda otlarni negizlarga bo'lish ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Shu sabab bilan qadimgi ingliz tilida otlar 3 guruhga bo'lingan.

Bular: kelishik kategoriyasi, kuchli turlanish va kuchsiz turlanish. Bunda so'zda ko'plik ma'nosini keltirish uchun ular ichki affiksli o'zgarish natijasida sodir bo'ladi. Asosan mujskoy rod so'zlarini birlik son bosh kelishigida "**a**" qo'shimchasini oladi, jenskiy rod va sredniy rod so'zlarini esa "**e**" qo'shimchasini oladi. Sredniy rodda tushum kelishigi bosh kelishik bilan bir xil, qolgan boshqa kelishiklar 3 rodding turlanishlari bir-biridan farq qilmaydi.

Masalan: birlik shaklini hosil qiluvchi bosh kelishikning mujskoy roddagi qo'shimchasi (**-a**), jenskiy va sredniy roddagi qo'shimchasi esa (**-e**), qolgan kelishiklar barcha rodлarda (**-an**) qo'shimchasi bilan yasaladi, faqat tushum kelishigi sredniy rodda (**-e**) qo'shimchasi bilan yasaladi. Ko'plik shaklini hosil qilish uchun esa barcha rodлarda bosh va tushum kelishiklari (**-an**), qaratqich kelishigi (**-ena**), jo'naliш kelishigi (**-um**) qo'shimchalarini oladi. Nemis tilida otlar 3 xil grammatik rodga ega bo'lib, ularning oldida rodni ko'rsatuvchi **der, die, das** kabi artikllari ishlataladi: **der-mujskoy rod (das Maskulinum, das mannliche Geschlecht), die-jenskiy rod (das Femininum, das weibliche Geschlecht), das-sredniy rod (das Neutrum, das sachliche Geschlecht)**. Otning grammatik rodi, avvalo, artikl vositasida ifodalanadi: **der Tisch, das Heft, die Vase**. Rod boshqa vositalar (sifat va olmosh) bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: **gross-er Garten, schwarz-e Tafel, klar-es Wasser**. Otlarning grammatik

rodini uning mazmuni hamda shakliga qarab ham belgilash mumkin. (*Die Bestimmung des Geschlechts der Substantive nach ihrer Bedeutung*). Mujskoy rodga quyidagi otlar kiradi:

- 1) erkak jinsiga xos bo'lgan so'zlar: *der Vater-ota, der Greis-chol, der Sohn-o'g'il, der Ochse-buqa, der Bruder-aka, uka, der Neffe-jiyan (og'il bola), der Brautigam-kuyov,*
- 2) qushlarning nomi: *der Storch-laylak, der Kranich-turna, der Adler-burgut, der Geier-kalxat, der Schwan-oqqush, der Kuckuck-kakku, der Uhu-ukki, der Rabe-qarg'.*
- 3) yil fasllari, oylar hamda hafta kunlari nomlari: *der Frühling - bahor, der Sommer yoz, der Herbst-kuz, der Winter--qish der Januar-yanvar, der Mai-may, der September-sentabr*
- 4) qutb nomlari: *der Norden-shimol, der Süden-janub, der Osten-sharq, der Westen-g'arb;*
- 5) tog va ko'lllar nomlari: *der Harz-Garts, der Brocken-Brokken, der Himalaja-Himolay, der Kaukasus-Kavkaz, der Pamir-Pomir;*
- 6) pul birlikiarini ifodalovchi so'zlar: *der Rubel, der Dollar, der Schein, der Euro, der Pfennig (istisnolar: die Mark, die Kopeke, das Pfund);*
- 7) har ikkala jins uchun teng qo'llanadigan so'zlar: *der Bürger-fuqaro, der Freund-do'st, der Genosse-o'rtoq, der Professor-professor, der Dekan-dekan,* Jenskiy rodga quyidagi otlar kiradi:
 - 1) ayol jinsiga mansub bo'lgan nomlar: *die Frau-ayol, die Mutter-oná, die Tante-xola, amma; die Tochter-qiz, die Schwester-singil, opa, die Nichte-jiyan (qiz bola);*
 - 2) urg'ochi hayvonlarning nomlari: *die Kuh-sigir, die Stute-baytal, biya, die Ziege-echki, die Sau-cho'chqa, die Henne-kurk tovuq;*
 - 3) oxiri *-e,-i* bilan tugagan qushlar nomi: *die Schwalbe-qaldirg'och, die Mowe-baliqchi qush, die Taube-kabutar, die Lerche-to'rg'ay,*
 - 4) hasharotlarning nomlari: *die Ameise-chumoli, die Wespe-ari, die Spinne-o'rgimchak, die Motte-kuya,*

5) daryolar nomlari: *die Elbe, die Oder, die Weser, die Spree, die Do-nau, die Angara, die Mosel,*

6) daraxtlarning nomlari: *die Eiche-dub, die Birke-qayin, die Weide-tol, die Pappe-terak, die Linde-arg'uvon daraxti,*

7) gullar nomlari: *die Rose-atirgul, die Tulpe-lola, die Klette-chakamug', alomatchoy, die Nelke-chinnigul, die Lilie-liliya,*

8) meva va sabzavot nomlari: *die Pflaume-olxo'ri, die Kirsche-gilos, die Birne-nok, die Apfelsine-apelsin, die Zitrone-limon,*

9) oxiri *-ei,-ie* yoki *-e* bilan tugagan davlat, viloyat va o'lka nomlari: *die Mongolei, die Turkei, die Krim, die Schweiz, die Arktis.* Sredniy rodga quyidagi otlar kiradi:

1) **odam va hayvon bolalari nomlari:** *das Kind-bola, das Lamm-qo'zi, das Fohlen-toy, das Fuhren-toycha, qulun, das Kalb-buzoq, das Ferkel-cho'chqa bolasi;*

2) qit'a va davlatlar, shaharlarning nomlari: *das Usbekistan, das Deutschland (sredniy roddagi joy nomlari keltirilgan)* (*istisnolar: der Irak, der Jemen, der Sudan*);

3) metallarning nomlari: *das Gold - oltin, das Silber- ku- mush, das Kupfer - mis, das Blei - qo'rg'oshin, das Eisen - temir, das Zink - rux* (*istisno: der Stahl - po'lat*);

4) alfavitdagi harflar: *das A, das Be, das Zet, das Ypsilon.* Otlarning grammatik rodini ularning so'z yasovchi suffikslariga qarab aniqlash (Die Bestimmung des Geschlechts der Substantive nach ihren wortbildenden Suffixen) Otlar tuzilishiga ko'ra **tub** (**die Wurzelwörter**), **yasama** (**die abgeleiteten Wörter**) va **qo'shma** (**die zusam men geset zten Wörter**) bo'ladi. Tub otlar birgina o'zakdan iborat bo'ladi.

Ularning rodini shakliga qarab aniqlash imkonsiz. Masalan: **der Baum, die Zeit, das Buch.** yasama otlar so'z yasovchi suffikslar yordamida yasaladi. Ularning rodini suffikslariga qarab aniqlash mumkin, chunki ko'pchilik ot yasovchi suffikslar faqat bir rodga tegishli bo'lgan otlarni yasaydi. Masalan: **-er** suffiksi hamma vaqt mujskoy roddagi otlarni, **-ung** esa jenskiy roddagi otlarni yashash uchun xizmat

qiladi: arbeiten **-der** Arbeiter dichten **-der** Dichter wohnen **-die** Wohnung bilden **-die** Bildung mujskoy roddagi otlarning qo'shimchalari: **-er,-ner,-ler,-ling** qo'shimchalari nemis tiliga xos qo'shimchalaridir. Jenskiy roddagi otlarning qo'shimchalari: **-in,-heit,-keit,-ung,-e** qo'shimchalari jenskiy roddagi otlarning asosiy qo'shimchalaridir. **-in** bilan mujskoy roddagi otlardan jenskiy rodga oid so'zlar yasaladi. Masalan: **der Lehrer (erkak) o'qituvchi -die Lehrerin (ayol) o'qituvchi, der Arbeiter (erkak) ishchi-die Arbeiterin (ayol) ishchi; -in** hayvon nomlarini bildirgan mujskoy roddagi otlarga qo'shilib, shu hayvonning urg'ochisi nomini ham bildiradi. Masalan, **der Lowe-die Lowin (arslon-er), der Wolf die Wolfin (urg'ochi bo'ri); -heit va -keit (-igkeit, -keit qo'shimchasining kengaygan shakli)** qo'shimchasi bilan sifatlardan mavhum ma'noli otlar yasaladi. Masalan: **schon (go'zal)-die Shonheit (go'zallik), krank (kasal)-die Krankheit (kasallik), tapfer (botir)-die Tapferkeit (botirlilik); -ung** qo'shimchasi bilan ko'pincha fe'llardan harakat nomini bildirgan jenskiy roddagi otlar yasaladi. Masalan: **bilden (yasamoq)-die Bildung (yasash), versammeln (yig'moq)-die Versammlung (yig'ilish); -e** sifat yoki fe'llardan mavhum ma'noli otlar yasaladi. Masalan: **lehren (o'qitmoq)-die Lehre (ta'limot), lang (uzun), die Lange (uzunlik), tief (chuqur)-die Tiefe (chuqurlik); -ei,-(e),-rei,-e** suffikslari yordamida: **die Gartnerei, die Bucherei, die Weite, die Groile, die Fischerei; -schaft: die Freundschaft, die Eigenschaft.**

Yuqorida ko'rsatilgan qo'shimchalardan tashqari, chet tillaridan kirgan **-ie,-tion,-tat,-ik,-ion,-ur** qo'shimchalari ham qo'llanadi. Bu qo'shimchalarga hamma vaqt urg'u tushadi: **die Theorie, die Chemie, die Universität, die Fabrik, die Politik, die Region, die Lexik die Kultur.** Turlovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan otlar ham jenskiy rodga oiddir: **-a; die Kamera, die Ara, die Aula, die Ballerina; -ade: die Ballade, die Fassade, die Marmelade, die Shokolade; -age (aje deb o'qiladi) die Garage, die Bagage, die Etage. Nemis tilida o'zlashib ketgan die Majonaise (-ase), die Palonaise so'zlari ham jenskiy rodga oiddir: -ance: die Renaissance, die Chance; -ane: die Fontane, die Qurantane; -ie: (...i) die Materie, die Historie, die Glorie, die Kastanie, die Kolonie, die Geographie, die Lotterie, die Kalorie, die Phantasie (istisno: das Genie); -(i) ere: (franz): -ik: die Musik, die Politik, die**

Lyrik, die Etnik, die Botnik, die Mathematik, die Dialektik; -ine: die Margarine, die Blondine, die Maschine, die Vitrine, die Kabine; -ion: die Nation, die Exposition, die Kalkulation, die Religion, die Station; -(i) tät: die Fakultät, die Qualität, die Realität; -isse: die Kulisse, die Marzisse; -itis: die Bronchitis, die Rachitis; -ive: die Alternative, die Direktive, die Kursivi; -ose: die Sklerose, die Neurose, die Tuberkulose; -sis: die Basis, die Dosis, die Genesis; -se: die Base, die Genese, die Analyse; -ur: die Natur, die Kultur, die Temperatur, die Registratur; -ire: die Broschüre, die Gravure. Sredniy roddagi otlarning qo'shimchalari: **-chen, -lein, -turn, -nis** qo'shimchalari sredniy roddagi otlarning asosiy qo'shimchalaridir. **-chen** va **-lein** otlarga qo'shilib, kichraytirish va erkalash ma'nolarini anglatadi va o'zbekchadagi **--cha** qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Masalan: **der Tisch (stol)** **-das Tischchen (stolcha)**. O'zagida **a, o, u** unlilari bo'lgan otlarga **-chen** va **-lein** qo'shimchalari qo'shilganda umlaut oladi, ya'ni **a, o, u** unlilari **a, o, ü** unlilariga almashadi. Masalan: **das Buch (kitob)-das Büchlein (kitobcha); das Haus (uy)-das Hauschen (uycha); der Vogel (qush)-das Vogelchen.** Ba'zi so'zlarda **-chen, -lein** o'z affikslik xususiyatini yo'qotgan bo'lib, bunday otlar tub so'z sanaladi: **das Madchen, das Veilchen.** **-turn** asosan jamlik ma'nosini bildirgan sredniy roddagi so'zlarni yasaydi. Masalan, **der Bauer (dehqon)-das Bauerntum (dehqonchilik); der Held (qahramon)-das Heldenntum (qahramonlik).** Mujskoy roddagi ba'zi otlar ham **-turn** qo'shimchasi bilan qo'llanadi: **reich (boy)-der Reichtum (boylik).** **-nis, -sal, -sel** qo'shimchalari bilan odatda sredniy roddagi otlar yasaladi: **das Hindernis (to'sqinlik), das Ereignis (voqeа), das Schicksal (taqdir), das Rätsel (topishmoq).** **-nis** qo'shimchasi bilan ba'zan jenskiy roddagi otlar, **-sal, -sel** suffikslari bilan esa mujskoy va jenskiy roddagi otlar ham yasaladi. Masalan: **die Erlaubnis (ruxsat), die Kenntnis (bilim), die Trubsal, die Muhsal, der Stopsel; -icht: das Dickicht, das Rohricht; -tel: das Drittel, das Viertel.** Quyidagi qo'shimchalar chet tillaridan kirgan sredniy roddagi otlarning qo'shimchalaridir: **-a: das Lineal (chizg'ich), das Signal (signal); -ment: das Instrument (asbob), das Dokument (hujjat); -at: das Plakat (plakat), das Diktat (diktant); -um: das Museum (muzey); -ium: das Auditorium (auditoriya), das Sanatorium (sanotariya); -ge** prefaksi yordamida

yasalgan otlar: ***das Gemuse, das Gebirge, das Geschlecht, das Gelachter.*** Chet tillaridan kirgan so'zlardan quyidagi qo'shimchalar yordamida sredniy roddagi otlar yasaladi: **-ett:** (*agar ular shaxs nomlarini ifoda etmasa*): ***das Ballett, das Bandkett, das Buffet, das Parkett, das Quartett;*** **-in:** ***das Benzin, das Chinin -i)*** **um:** ***das Album, das Datum, das Plenum;*** **-ment:** ***das Argument, das Dokument, das Element, das Experiment (lekin ma'lum kasbhunarga oid terminlardan ham sredniy rodga oid otlar yasaladi).*** **Masalan:** ***der Zement*** qurilishda ishlatiladigan sement, ***das Zement*** esa odam tishi uchun ishlatiladigan sement; **-ment (franz):** ***das Appartament, das Abonnement.*** Sredniy rod otlari haqidagi quyidagi qoidalarni ham esda tutish kerak. Sredniy rod otlari kichraytirish ma'nosini anglatadi: ***das Kind, das Lamm, das Kalb.*** Otlashgan so'zlarning rodini aniqlash (***Die Bestimmung des Geschlechts der substantivierten Wörter***). Nemis tilida mustaqil so'z turkumlari ham, yordamchi so'z turkumlari ham otlasha oladi va otga xos belgilarni qabul qiladi.

Har bir otlashgan so'z uchala roddan biriga mansub bo'lib, ularning rodi quyidagilarga qarab aniqlanadi:

1. Otlashgan infinitiv sredniy rodda bo'ladi: ***das Leben, das Lachen, das Versprechen.***
2. Otlashgan ravish, bog'lovchi, undov, so'roq so'zlar ham sredniy rodda bo'ladi: ***das Gestern, das Morgen, das Aber, das Ach, das Weh, das Wann, das Wohin.***
3. Otlashgan sifat va sifatdoshlar mavhum jonsiz predmetlarni bildirsa, sredniy rodda keladi: ***das Gelb, das Blau, das Grun, das Argste.*** Otlashgan sifat va sifatdoshlar shaxs nomlarini bildirsa, mazmunga qarab mujskoy yoki jenskiy rodda bo'ladi: ***der Fremde - die Fremde, der Vorsitzende - die Vorsitzende,***

4. Otlashgan sanoq sonlar jenskiy rodda bo'ladi: ***die Funf, die Acht, die Drei, die Zwei.*** Rodi barqaror bo'limgan ayrim otlar barqaror rodga ega emas. Ayni bir ot ikki rodda qo'llanishi mumkin. Biroq bu narsa uning mazmuniga ta'sir qilmaydi: ***der yoki das Katheder-kafedra, minbar der yoki das Meter-metr.*** Ba'zi hollarda rod omonimlarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi, yani otning rodi so'zning

ma'nosiga ta'sir etib, uni butunlay boshqa ma'noga aylantirib yuboradi: **der Band (jild, tom)-die Band (lenta) der Bauer (dehqon)-die Bauer (katak) der Erbe (merosxo'r)-das Erbe (meros) die Erkenntnis (bilish, anglash)-das Erkenntnis (hukm-sud hukmi).**

Quyidagi so'zlarda ham ularning rodi, shakli va ma'nolari hozirgi kunda o'zgarib ketganini, ba'zilarining esa rodi o'zgarsada, ma'nosi o'zgarmay qolganini sezish qiyin emas. Masalan: **die Ecke burchak-das Ecke joy belgisi, der Import (Einfuhr) import, die Import-chet eldan keltirilgan mollar, chet eldan mol keltirish der Karren aravacha-die Karre aravachada olib borish (biror narsani) der Lug yolg'on-die Luge yolg'on, der Quast-keng panja, qo'l panja-die Quaste-popuk, gajim die Rohre truba, quvur; tarnov-das Rohr truba, quvur; tarnov der Ruin xonavayron bo'lish-die Ruine xaroba, vayrona der Schurz fartuk, etak-der Schurze fartuk, etak.**

Fransuz tilida otlaming 2 grammatik kategoriyasi mavjud bo'lib, ular rod (**genre**) va son (**nombre**), ya'ni mujskoy (**masculin**) va jenskiy (**feminine**). Otlaming qaysi rodga mansubligi, ular oldida qo'llangan artikl va ko'rsatish yoki egalik sifatlari orqali aniqlanadi.

Fransuz tilida jonli va jonsiz otlarda rod kategoriyasi alohida ko'rib chiqilishi kerak. Chunki jonli otlar tilda juft holatda uchraydi. Jonli otlaming mujskoy rodidan jenskiy rod otini yashash uchun, quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur: jenskiy rod formasi mujskoy roddagi otga o'qilmaydigan **-e** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

Bunda:

a).-**e** qo'shimchasi faqat grafik belgi bo'lib, otning talaffuziga ta'sir etmaydi: **Un ami-une amie, do'st-dugona.**

b) -**e** qo'shimchasi otni faqat grafik jihatidan emas, balki fonetik jihatidan ham o'zgartiradi; **un laure'at-une laure'te, nomzod-nomzod ayol.** Odam va hayvon nomlarini bildiradigan ko'pgina otlarning mujskoy va jenskiy rod formalari, mazkur shaxs va hayvon jinsiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

L'oncle – **amaki ,tog'a**

la tante – **amma xola**

Le pere – **ota**

la mere – **ona**

Le coq – **xo'roz**

la poule – **tovuq**

Mujskoy roddagi otning **-er, -ier** qo'shimchalari jenskiy rodga **-ere, -iere** tarzida bo'ladi:

Un e'tranger – une etrangere (chet ellik).

Mujskoy rodga **-n** yoki **-t** undoshi bilan tugallangan ko'pgina otlaming jenskiy rodi bu undoshlaming ikkilanishi orqali yasaladi:

Un chat – une chatte (mushuk)

in,-ain, -un va -an harf birikmalar bilan tugallangan ko'pgina otlarda **-it** ikkilantirilmaydi: ***un voisin—une voisine (qo'shni), un copain — une copine (do'st)*** Mujskoy rodga **-eur** qo'shimchasi bilan tugallangan otlaming jenskiy rodi **-euse** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi;

un vendeur – une vendeuse (sotuvchi)

un acheteur – une acheteuse(sotib oluvchi)

Mujskoy roddagi **-teur** qo'shimchasi jenskiy rodga **-trice** qo'shimchasiga o'zgaradi: ***un acteur—une actrice (aktrisa,) un traducteur — une traductrice (tarjimon)***

Mujskoy rodga **-e** qo'shimchasi bilan tugallangan ba'zi otlar jenskiy rodga **-esse** qo'shimchasini qabul qiladi: ***un tigre-une tigresse (yo'lbars) un poete-une poetesse (shoir).***

Mashg'ulot turi va kasb bildiradigan ba'zi otlaming yagona mujskoy rod forması mavjud: ***un medecin, m , une femme medecin vrach, vrach ayol.*** Faqat bir rodga ega otlar ***-Un animal, un perroquet, un ecureuil, un bourreau, etc. Une victime, une souris, une grenouille, une panthere,*** Jenskiy va mujskoy formalari bo'lmanan hayvonlar nomlari ***male*** (erkak) yoki ***femelle*** (urg'ochi) so'zlari bilan ifodalanadi:

une souris male - ***erkak sichqon***

une souris femelle - ***urg'ochi sichqon.***

Jonsiz otlaming rodini talaffuz qilinishi yoki imlosiga ko'ra aniqlash qiyin. Bu otlaming rod kategoriysi ba'zan artikl yoki uning o'mida ishlataladigan

determinativlar va maxsus suffikslar bilan ifodalanadi.

Jenskiy va mujskoy rodga xos bo'lgan suffikslar quyidagilardan iborat;

MASCULIN

ment

un government, un medicament

-phone

Un telephone, un interphone

Ba'zi otlar har ikkala rodga ham mansub bo'lib, ular faqat ma'no jihatidangina farq qiladi. Bunda otning ma'nosi artikl orqali aniqlanadi;

MUJSKOY ROD

un tour – gal, navbat

le vapeur – paroxod

le vase – vaza

le memoire – ilmiy asar

FEMININ

-tion

une solution une information

- sion

-une decision, une television

JENSKIY ROD

une tour – minora

la vapeur – bug'

la vase – loyqa

la memorie – xotira

Jonsiz otlaming rodini aniqlash uchun lug'atdan foydalanish zarur. Lug'atlarda otlarning rodi **m** (maseulin), (**feminin**) harflari orqali ifodalanadi: **veston (m)-nimcha; e chole (f) maktab**. Shuni yodda tutish lozimki, rus tilidagi otning rodi har doim ham fransuz tilidagi otning rodi bilan mos kelavermaydi.

Tillarda grammatik kategoriyalarning nisbati bir xil emas, chunonchi ingliz va nemis tillaridagi otlarning farqlovchi xususiyati shundaki, nemis tilida (xuddi rus tilidagidek) rod kategoriyasi mavjud; tad (kun)- mujskoy rod; **wasser-(suv)**-sredniy rod; **tongue (til)** jenskiy rod. Biroq, zamonaviy ingliz tilida bu grammatik kategoriya "bosib o'tilgan", "unutilgan" ko'rinish hisoblanadi. Otlarga tegishli bo'lgan kelishik, son, rod, rus tilida, anqlik-noaniqlik yordamchi so'z turkumi hisoblanuvchi artikli bo'lgan tillarda grammatik kategoriyalari turli tillarda mavjud. Jumladan, turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida otlarga tegishli son, kelishik, egalik kategoriyalari bor, biroq rod va anqlik-noaniqlik kategoriyalari yo'q. Ingliz tilida son, kelishik va anqlik-noaniqlik kategoriyalari mavjud, lekin rod va egalik kategoriyalari yo'q. Rus tilida esa, son rod, kelishik kategoriyalari bor, egalik va anqlik-noaniqlik kategoriyalari yo'q. Bularning barchasi otlarga tegishli grammatik

kategoriyalardir. Rod kategoriyasi hind-ovropa tillari oilasi german va roman guruhlaridagi tillarning ko'pchiligidagi yo'qolgan, lekin ba'zilarida, xususan, nemis tilida 3 ta rod, fransuz tilida 2 ta rod saqlanib qolgan. Ingliz tilida esa yo'q. Bu kategoriya tillarda uchraydigan boshqa grammatik kategoriyalardan farq qiladi. Rod (jins) kategoriyasi tildagi so'zlarni 3ta, ya'ni jenskiy, mujskoy, neytral yoki sredniy rodga ajratadi. Mazkur grammatik kategoriyaning boshqa grammatik kategoriyanidan farqi shuki, u hozirgi zamonda inson tafakkuri mantiqiga hech to'g'ri kelmaydi, chunki grammatik rod kopchilik tillarda 3ta; Grammatikadagi (betaraf) sredniy rodga tabiatda mos keladigan jins yo'q. Undan tashqari, tabiatda jins tirik organizmlarga xos narsa, ammo rod kategoriyasi o'z ichiga jonsiz predmet va xodisalarini ham oladi. Grammatik rod kategoriyasi ko'pchilik xorijiy tillarga xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://muhar.org>.
2. Musayeva F.T.O'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi: filol. fanlari falsafa dok PhD diss.- Toshkent, 2019.
3. Rasulova M. Jins tushunchasining turli tillarda ifodalanishiga doir o'zbek tili va adabiyoti, 1997
4. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-282317-1.htm/?poge=4>
5. Qo'ldoshev "Ingliz tili tarixi" Toshkent 2015 186 bet
6. Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatları Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Samarqand, 2019-yil 24-may.
7. Kuvanova SH.O. "Nemis tili grammatikasidan universal qo'llanma" Toshkent" Akadem nashr". 2013,17 bet.
8. Shirinova.R.H, Muhamedaminova.F.M. "Fransuz tili darsligi" Toshkent 2016, 53-bet.
9. Mamatov.A.E, MirxoliqovM.M, Asqarov.A.S. "Fransuz tilining amaliy grammatikasi" Toshkent.